



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



FARG'ONA  
DAVLAT  
UNIVERSITETI

# MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI:

MUAMMO, YECHIMLAR VA  
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

## II - QISM

11 - IYUN 2020 YIL



FARG'ONA - 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**HAMKOR TASHKILOTLAR:**

N.I. LOBACHEVSKIY NOMLI MILLIY TADQIQOT NIJNIY NOVGOROD DAVLAT UNIVERSITETI

N.G.CHERNISHEVSKIY NOMLI SARATOV MILLIY TADQIQOT DAVLAT UNIVERSITETI

JANUBIY FEDERAL UNIVERSITETI PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA AKADEMIYASI

MAKTABGACHA TA‘LIM VAZIRLIGI QOSHIDAGI MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARI RAHBAR  
VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING  
DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA  
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani  
MATERIALLARI**

**II-QISM**

**11 iyun 2020 yil**

**Farg‘ona - 2020**

**Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari.** Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (11 iyun 2020 yil): anjuman materiallari to'plami. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2020 yil. – 441 b.

Ushbu to'plamda 11 iyun kuni Farg'ona davlat universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar, rivojlanish istiqbollari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman yalpi majlis ma'ruzalari va shu'balar bo'yicha maqola va tezislari aks ettirilgan.

Anjuman materiallari O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Germaniya, Latviya, Finlandiya, Qirg'iziston, Tojikiston, Koreya olimlari, pedagoglari, talabalari, magistrant, doktorant, aspirant, maktab o'qituvchilari, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar tomonidan tayyorlangan bo'lib, ularda raqamli dunyo sharoitida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlanish, bu boradagi O'zbekiston va xorijiy ilg'or tajriba, boshlang'ich ta'limda fanlarni o'qitish uslubiyoti masalalari, PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS tadqiqotlari va ularni amalga oshirish, bolalar nutqini rivojlantirish, ona tili va xorijiy tilni o'rgatishning pedagogik va psixologik jihatlari, ekologik ta'lim berish kasbiy kompetentlik, psixologik va jismoniy salomatlik, inklyuziv ta'lim va boshqa masalalar yoritilgan.

Anjuman materiallari boshlang'ich va maktabgacha ta'lim sohalari yo'nalishida faoliyat yurutuvchi olimlar, pedagog, psixolog talabalar, tadqiqotchi va mutaxassislarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:** F.R. Qodirova – Pedagogik ta'lim xalqaro fanlar Akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi qoshidagi maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti professori (O'zbekiston).

M.E. Jumayev – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida professori, pedagogika fanlari nomzodi (O'zbekiston)

To'plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'uldirlar.

**Farg'ona davlat universiteti  
2020 yil 11 iyun**

2. Гридина Т.А. Языковая игра: стереотип и творчество. – Екатеринбург, 1996.

## **ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Хайдарова Шахло Нарзуллаевна**

*Навоий давлат педагогика институти, катта ўқитувчи*

### **Аннотация**

Ушбу мақолада мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларида ахборот ва компьютер саводхонлигини шакллантиришда замонавий ёндашув ҳақида сўз боради.

**Калим сўзлар:** мактабгача таълим ташкилотлари, модернизациялаш, ахборот коммуникацион технологиялар, компьютер саводхонлиги, монитор.

## **МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА АХБОРОТ ВА КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ**

**Хайдарова Шахло Нарзуллаевна**

*Навоийский государственный педагогический институт, старший преподаватель*

### **Аннотация**

В данной статье идёт речь о современном отношении в формировании у воспитанников дошкольных образовательных учреждений информационно-коммуникативной грамотности.

**Ключевые слова:** дошкольные образовательные учреждения модернизация, информационно-коммуникационные технологии, компьютерная грамотность, грамотность.

## **THE POSSIBILITIES OF USING INFORMATION AND COMPUTER TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION**

**Khaydarova Shakhklo Narzullaевна**

*NavSPI, Senior Lecturer*

### **Abstract**

This article discusses the modern approach to the formation of information and computer literacy in preschool education.

**Keywords:** preschool education, modernization, information and communication technologies, computer literacy, monitor.

Ёш авлодни тарбиялаш, келажак ҳаётга тайёрлаш ўз истикболи, тараққиёти, эртанги куни хусусида қайғурадиган ҳар қандай мамлакат учун энг устувор вазифалардан бири саналади. Чунки мамлакатнинг келажаги, қандай ривожланиши, қолаверса, илм салоҳияти йиллар ўтиб ёш авлоднинг зиммасига тушади. Бу жараёнда таълим-тарбия инсоннинг маънавий қиёфасини акс эттиришда ҳал қилувчи куч вазифасини ўтайди. Шу боис юртимизда таълимнинг илк бўғини мактабгача таълим ташкилотларидан бошлаб боланинг ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мактабгача ёшдаги болаларнинг онги, фикрлаши, хотираси кучли бўлади ва олган билимини ҳаттоки бир умрга ёдида сақлайди. Мактабгача ёшдаги болаларга берилаётган ахборотлар унинг келажагига катта таъсир кўрсатади. Ҳаётимизнинг барча соҳалари каби таълим тизимини ҳам модернизациялаш бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Инновацион таълим муҳитини яратиш, уни халқаро андозаларга тўлиқ мослигини таъминлаш ёшларимизни бугунги тез ўзгарувчан ижтимоий ҳаётга муваффақиятли ижтимоийлаштиришнинг муҳим омилidir. Таълимни ривожлантиришнинг илк босқичида ахборот коммуникацион технологияларни қўллаш зарурий эҳтиёж бўлмоқда. Шунинг учун ҳам бугунги кунда мактабгача таълим тизимининг мазмуни ва сифати бизнинг жамиятимизни долзарб масалалари ва устувор йўналишларидан бири бўлиб ҳисобланмоқда. Мактабгача таълимни янада ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш усуллари ва тадбирлари изланмоқда ва шу билан бирга мактабгача таълим-тарбия жараёнида янги ахборот

коммуникацион технологияларини жорий этиш масаласи оммалаштирилмоқда. Ҳозирги даврда ахборот коммуникацион технологиялари таракқиётимизнинг асосий тармоқларидан бири бўлган мактабгача таълим жараёнининг жадал ривожланиб боришида, уни амалга ошириш учун замонавий ёндашув жараёнида ўрни ва самарадорлиги беқиёсдир. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларига таълим-тарбия беришда ахборот технологияларидан фойдаланиш ўзининг ижобий самарасини бермоқда. Бугунги кунда барча мактабгача таълим ташкилотлари замонавий компьютер ва ахборот технологиялари воситалари билан жиҳозланган. Тарбияланувчиларда компьютер саводхонлигини шакллантириш, уларни компьютердан элементар тарзда фойдаланишга ўргатиш мактаб таълимига тайёрлашнинг долзарб масалалардан бири эканлигини кўрсатади. Мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчилари монитор экранда намойиш этиладиган материалларни ўрганиб борсалар ва компьютердан фойдаланиш бўйича етарлича кўникма ҳосил қилсалар, мактабнинг бошланғич синфига борганда ҳам компьютер ва ахборот технологияларидан фойдалана олиш малакасига эга бўладилар. Шу билан бирга, тарбияланувчиларнинг компьютердан фойдаланиш жараёнида мантиқий тафаккурлари ривожланади, билим олишга ҳаваслари ва иштиёқлари ортади, дунёқарашлари шаклланади. Мактабгача таълим ташкилотларида болаларга компьютер технологияларидан фойдаланиб машғулот ўтишда кўйидагиларга эътибор бериш керак. Болаларнинг ёшини ва фикрлаш даражасини, таълим материални қай даражада эслаб қолиш имкониятларини ҳисобга олиш, компьютер билан ишлаганда кўз толиқишини олдини олишни ҳисобга олиш керак. Агар болалар берилаётган материалларни кўриш (видео) асосида қабул қилса, ахборотнинг хотирада сақлаб қолиниши 25-30 % га ошади. Бунга қўшимча сифатида ўқув материаллари аудио, видео ва графика кўринишида мужассамлашган ҳолда берилса, материалларни хотирада сақлаб қолиш 75 % га ортади.

Мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланувчиларни компьютер дастурларидан фойдаланишлари бир қанча педагогик-психологик функцияларни амалга оширади ва шакллантиради:

1. чарчоқ ва қувватсизликни йўқотади;
2. ўз қобилияти ва иқтидорини намойиш қилиш имконини беради;
3. мустақил ҳаракат қилиш имконини беради;
4. ҳамкорлик қилиш усулларини ишлаб чиқиш имконини беради;
5. мулоқот қилиш кўринишларини шакллантиради;
6. инсонлар билан қандай муносабатда бўлишни ўргатади;
7. ўз-ўзини назорат қилишни шакллантиради;
8. образли тасаввурлаш ва фикрлаши ривожланади;
9. нутқ, креатив фикрлаш ва когнитив қобилиятлари ривожланади.

Мактабгача таълим ташкилотларининг таълим жараёнида янги компьютер ва ахборот коммуникацион технологиялари воситаларининг жорий этилиши у ерда фаолият юритаётган педагог-ҳодимлардан ҳам катта куч талаб қилади. Педагог-ҳодимларнинг ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланишда малака ва кўникмалари шаклланган бўлиши ва шу билан бирга улардан машғулотларни тўғри ташкил этиш ҳамда компьютер ва ахборот технологияларидан тўғри фойдалана олиши зарур. Мактабгача таълим ташкилоти педагог-ҳодимлари доимо ўз билим доирасини янгилаб бориши, замонавий ахборот-коммуникацион технологияларини билиши, ташаббускор, ижодкор бўла олиши лозим. Компьютер воситасида тайёрланган анимациялар, видеофильмлар, слайдлар, мультимедиа тақдимотлари мактабгача ёшдаги болаларга билимларни ўзлаштиришда яхши самара бериб, материални мустақил ўзлаштириш ва назорат қилиш имконини беради. Бу эса, тарбиячи-педагогларнинг ўз фаолияти жараёнида янгича ёндашувини, машғулот ўтиш жараёнида болаларни билим, малака ва кўникмаларини шакллантириш ҳамда уларни тушунарли ва қизиқарли шаклда ташкил этишда замонавий педагогик ва ахборот коммуникацион технологияларидан самарали фойдаланишни тақазо этади.

Хулоса қилиб айтганимизда, мактабгача таълим ташкилотларида замонавий технологиялардан фойдаланиш натижасида тарбияланувчиларни билим олишга интилиши ошади, мустақил фикрлаш қобилияти ривожлана боради ва эркин фикрлашга ўрганади.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Ишмухамедов Р. Тарбияда инновацион технологиялар. -Т.: Фан, 2010. [96-98 б.]
2. О.Д.Рахимов, О.М.Турғунов, Қ.О.Мустафаев, Ҳ.Ж.Рўзиев. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ.Тошкент-2012 [7-9 б.]
3. Б.Р.Джураева, Ҳ.М.Тожибоева, Г.М.Назирова. Мактабгача таълим ёшидаги болаларга таълим-тарбия беришнинг замонавий тенденциялари. Тошкент-2015 [63 б.]

## **BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA SODDA MASALALARNI YECHILISHINI MULTIMEDIA VOSITALARI YORDAMIDA TUSHUNTIRISH**

**Umarova Guljahon Umidullayevna**

*Buxoro davlat universiteti, katta o‘qituvchi*

#### **Annotatsiya**

Maqola metodologik mazmunga ega bo‘lib, unda boshlang‘ich ta‘limda sodd masalalarni yechilishini multimedia vositalari yordamida tushuntirishning metodik xususiyatlari ta‘kidlab o‘tiladi.

*Kalit so‘zlar: sodd masala, multimedia, taqdimot, murakkab masala, ijodiy topshiriq.*

## **ОБЪЯСНЕНИЕ РЕШЕНИЯ ПРОСТЫХ ЗАДАЧ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ С ПОМОЩЬЮ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ**

**Умарова Гулжахон Умидуллаевна**

*Бухарский государственный университет, старший преподаватель*

#### **Аннотация**

Статья имеет методологическое содержание, подчеркивающая методологические особенности объяснения простых задач в начальном образовании с помощью мультимедиа.

*Ключевые слова: простая задача, мультимедиа, презентация, комплексная задача, творческое задание.*

## **EXPLANATION OF THE DECISION OF SIMPLE TASKS IN PRIMARY EDUCATION BY MEANS OF MULTIMEDIA MEANS**

**Umarova Gulzhahon Umidullaevna**

*Bukhara State University, Senior Lecturer*

#### **Abstract**

The article has a methodological content, emphasizing the methodological features of explaining simple problems in primary education with the help of multimedia.

*Keywords: simple problem, multimedia, presentation, complex problem, creative task.*

Boshlang‘ich maktablarda ham sifat, ya‘ni o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi birinchi o‘rinda turadi. Axborot texnologiyalaridan esa o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalarni o‘qishga o‘rgatishi, ularning bilishga bo‘lgan qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirishi hamda ta‘lim jarayoni va fan asoslarini chuqur o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan ta‘lim vositalari bilan ta‘minlashi lozim. Uning asosiy vazifalaridan biri - bolalarning bilishga bo‘lgan xarakterlarini kuchaytirishdan iborat.

2-sinfdan boshlab sodd va murakkab masalalar yechish ketma-ket tartibda berib boriladi. Eng avvalo o‘quvchilar o‘qituvchining topshirig‘i bilan amaliy xarakterdagi mashqlarni bajaradilar.

Masalan, 30 ta cho‘pga 70 ta cho‘pni qo‘shganda nechta cho‘p bo‘ladi, degan o‘qituvchining savolini o‘quvchilar bevosita cho‘plar orqali bajaradilar. O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar masalada berilganlarni elementar mulohazalarga ajratadilar.

- masalada berilganlar yoki bizga nimalar ma'lum degan savol qo'yadi;
- masalada savoli yoki nimani bilish kerak;
- kerakli amalni bajarish;
- masalaning javobini keltirib chiqarish;

Bundan keyin o'quvchilar masalalar yechishda sonli berilganlarni tasvirlovchi rasmlardan foydalanadilar. Masala yechish malakalari rivojlangan sari o'quvchilar tushunadigan predmet va hodisalar orasidagi bog'lanishga doir masalalarni yecha boshlaydilar.

Sodda masalalar o'quvchilarni matematik munosabatlar bilan tanishtirishning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Sodda masalalardan ulushlar, qator geometrik tushunchalar va algebra elementlarini o'rganishda ham foydalaniladi.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog'i lozim.

1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar hali o'qish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o'qituvchi o'qib beradigan masala tekstini tinglashga, shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o'rgatish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida, har bir o'quvchi masala matnini tinglabgina qolmay, balki masalani mustaqil o'qib chiqishi zarur;

Masala matni o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan bir-ikki marta o'qiladi, ammo bunda bolalarni masala matnini bir marta o'qishdayoq uning mazmunini tushunib olishga asta-sekin o'rgata borish kerak.

2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma'lumni noma'lumdan ajarata olish malakasi). Ma'lumni noma'lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri, bunday malakaga ega bo'lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o'rganib bo'lmaydi.

3. Masalani qisqa yozish malakasi. Masala teksti ustida og'zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik terminlar tiliga o'tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasi belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).

Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining tahlil ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o'quvchilar xotirasiga tayanch bo'lib, son ma'lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini bayoniy tushuntirish imkonini yaratadi.

4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to'xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o'quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o'zgartiriladi.

5. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masala arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o'rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so'z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi.

6. Masala yechimini tekshira olish malakasi. Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo'llaniladi:

- a) Olingan javob bilan masala sharti o'rtasida moslik o'rnatish.
- b) Teskari masala tuzish va yechish
- c) v) Masalani boshqa usullar bilan yechish
- d) g) Javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash).
- e) Grafik tekshirish

7. Masalalar ustida ishlashda ma'lum sistemani belgilash va uni joriy qilish malakasi.

Oquvchilarning masalalar yechish malakasini oshirishda zamonaviy komp'yuter texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Biz quyida masalalar yechish jarayonini taqdimotlar asosida o'qitish uslubiyotini keltiramiz.

Birinchi sinf matematika fanidan taqdim etilgan adabiyotlar masalalar quyidagi shakllarda berilgan:

Masala sharti ekranda paydo boladi. Shartni o'quvchilarga yaxshiroq tushunturish uchun adabiyotda berilgan rasmlardan foydalanildi. Oquvchilarga nimani topish kerakligi tushutirib bo'lingach, masalani yechishga o'tamiz. Keyingi slaydda masalani yechimi berilgan. Bunda o'quvchilar birinchi sinfda sanashni yaxshi bilishlarini hisobga olib xar bir parrandani ekranga sanashdagi raqami berilgan xolda aloxida chiqarib jami nechta parranda borligini aniqlaymiz. Bunday

Rasm bo'yicha masala tuzing va yeching:



Katakda jami 4 ta tovuq va 5 ta jo'ja bor. Hammasi bo'lib kattakda nechta parranda bor?

Masalani yechilishi:




$$4 + 5 = 9 \text{ ta}$$

Javob: Ja'mi 9 ta parranda bor.

Taqdimotda bu masalada masala shartini o'quvchilar yordamida tuzib bo'lingandan so'ng o'qituvchi tomonidan tayyorlangan masala sharti paydo bo'ladi. Masala shartini tushunturib bo'lgach uni yechish usuli keyingi slaydda namoyish etiladi. Bu slaydda har bir yashikda necha kilogramm sabzi borligi ekranda paydo bo'ladi, keyin ja'mi maxsulotdan borini ayirish yo'li bilan masala javobi aniqlanadi.

Rasm bo'yicha masala tuzing va yeching:



3 ta yashiqda jami 100 kg sabzi bor. Birinchi yashiqda 38 kg, ikkinchi yashiqda 30 kg sabzi bor. Uchunchi yashiqda necha kg sabzi bor?

Masalani yechilishi:



$$100 - 38 - 30 = 32 \text{ (kg)}$$

Javob: 3-yashiqda 32 (kg)

O'quvchilarga masala ishlash qiziqarliroq bo'lishi uchun masala shartlarida ularga tanish bo'lgan vositalardan foydalanilgan. Masalan, "Qushlar uchun bolalar ikki kunda 28 ta uycha yasashdi. Ular 8 ta uychani ilib qoyishdi. Bolalar yana nechta uychani ilishlari kerak?". Bu masalani yanada qiziqarliroq qilib yechish uchun biz o'quvchilarga quyidagicha taqdimotni taklif etamiz:


Qushlar uchun bolalar ikki kunda 28 ta uycha yasashdi. Ular 8 ta uychani ilib qoyishdi. Bolalar yana nechta uychani ilishlari kerak ?



Yechish:  $28 - 8 = 20$  (ta)

Javob: 20 (ta) uycha ilish kerak.

Karim 6 sm uzunlikdagi kesma chizdi. Akrom esa uni 1 sm ga uzytirdi. Qanday uzunlikdagi kesma hosil bo'ldi?



Yechish:  $6 + 1 = 7$  (sm)

Javob: Uzunligi 7 sm kesma

Ikkinchi sinf boshida o'quvchilarga birinchi sinfda o'tilgan mavzularni yodga olish uchun sodda masalalar beriladi. Masalan, "Duradgorda ikki taxta bor: birining uzunligi 6 dm ikkinchisi undan 3 marta uzun. Ikkinchi taxtaning uzunligi qancha?" Bu masalaning taqdimotida avval masala sharti beriladi, keyin 6 dm kesma chiziladi. Unga 3 marta uzun kesma uzunligini aniqlash uchun avval uchta shunday kesma chizamiz, keyin uzunligini aniqlash uchun har bir kesma uzunligini qo'shib